

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ YOSHDAGI BOLALARNI JAMIYATGA MOSLASHUVINI TAMINLASHDA RIVOJLANTIRUVCHI MUHITNING O'RNI

Valijonova Bibirobiya Numonjon qizi
Qo'qon Davlat Universiteti
Maktabgacha ta'lim mutaxassisligi
2 – bosqich magistranti.

E-mail: robiyaxonmeliqoziyeva008@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning jamiyatga moslashuv jarayonida rivojlantiruvchi muhitning ahamiyati yoritilgan. Rivojlantiruvchi muhit bolaning ijtimoiy faolligi, mustaqil fikrlashi, muloqot ko'nikmalari va shaxs sifatida shakllanishida muhim omil hisoblanadi. Tadqiqotda rivojlantiruvchi muhitning turlari, uning tarkibiy qismlari hamda bolalarning ijtimoiy moslashuviga ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, pedagog va ota-onalarning hamkorligi asosida samarali rivojlantiruvchi muhit yaratish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, rivojlantiruvchi muhit, ijtimoiy moslashuv, shaxs rivoji, muloqot ko'nikmalari, tarbiya

Аннотация

В статье рассматривается роль развивающей среды в процессе социальной адаптации детей дошкольного возраста. Развивающая среда способствует формированию социальной активности, коммуникативных навыков, самостоятельности и личностного развития ребенка. В исследовании проанализированы виды и компоненты развивающей среды, а также их влияние на успешную адаптацию детей к обществу. Особое внимание уделено взаимодействию педагогов и родителей в создании благоприятной развивающей среды.

Ключевые слова: дошкольное образование, развивающая среда, социальная адаптация, развитие личности, коммуникативные навыки, воспитание

Abstract

This article examines the role of a developmental environment in ensuring the social adaptation of preschool-aged children. A well-organized developmental environment plays a significant role in fostering children's social activity, communication skills, independence, and overall personal development. The study analyzes the types and components of the developmental environment and their impact on children's successful integration into society. Special attention is given to the cooperation between educators and parents in creating an effective developmental environment.

Keywords: preschool education, developmental environment, social adaptation, personal development, communication skills, upbringing

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti jarayonida maktabgacha ta'lim tizimining o'rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarning jamiyatga moslashuvi, ularning ijtimoiy tajribani egallashi, muloqot madaniyatini shakllantirishi hamda shaxs sifatida kamol topishida ta'lim-tarbiya muhitining roli muhim hisoblanadi. Bola ilk ijtimoiy tajribani aynan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida oladi va bu jarayonda uni o'rab turgan rivojlantiruvchi muhit hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Rivojlantiruvchi muhit bolaning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda tashkil etilib, uning jismoniy, aqliy, ijtimoiy va hissiy rivojlanishini ta'minlaydi. Mazkur muhit orqali bolada mustaqillik, tashabbuskorlik, o'z fikrini erkin bayon etish, tengdoshlar bilan hamkorlikda faoliyat olib borish kabi muhim ijtimoiy ko'nikmalar shakllanadi. Shu sababli, rivojlantiruvchi muhitni to'g'ri tashkil etish bolalarning jamiyatga moslashuvini muvaffaqiyatli ta'minlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantiruvchi muhitni yaratish, pedagoglar va ota-onalarning hamkorligini yo'lga qo'yish hamda bolaning shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga qaratilgan ta'limiy faoliyatni tashkil etish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 9-sentyabr kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida maktabgacha ta'limda zamonaviy o'quv dasturlarini qo'llash, ta'lim sifatini oshirish va tizimda zamonaviy yondashuvlar joriy etish zarurligini ta'kidladi¹. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, uni xalqaro talablarga moslashtirish va raqamlashtirish yo'nalishida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi², "Maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish konsepsiyasi"³ hamda "Ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish to'g'risida"⁴gi hukumat qarorlari bu sohada axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish uchun huquqiy va tashkiliy asos yaratdi. Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turi⁵ bo'lib, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon sifatida faoliyat ko'rsatadi.

Maqolaning maqsadi: maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarning jamiyatga moslashuvini ta'minlashda rivojlantiruvchi muhitning o'рни va ahamiyatini nazariy hamda amaliy jihatdan yoritish, rivojlantiruvchi muhitning asosiy tarkibiy qismlarini tahlil qilish hamda bolalarning ijtimoiy moslashuv jarayoniga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 9-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi sohasidagi ustuvor vazifalar" to'g'risidagi nutqidan

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni "Raqamli O'zbekiston — 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida".

³ "Maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish konsepsiyasi" — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son Qarori bilan tasdiqlangan.

⁴ "Ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish to'g'risida" — O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 25-iyundagi 402-son qarori

⁵ Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги ЎРҚ-637-сон Қонуни. Тошкент ш., 2020 йил 23 сентябрь. (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.09.2020 й., 03/20/637/1313-сон)

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning jamiyatga moslashuvi masalasi pedagogika va psixologiya fanlarida yetakchi tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda bolalarning ijtimoiylashuvi ularni o'rab turgan muhit, ayniqsa rivojlantiruvchi muhit bilan uzviy bog'liqligi ta'kidlanadi. Rivojlantiruvchi muhit bolaning shaxs sifatida kamol topishi, ijtimoiy tajribani egallashi va jamiyat qoidalariga moslashuvida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston olimlaridan F.R.Qodirova, Q.Toshpo'latova, N.M.Qayumova, M.N.Azimova⁶ lar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhit qanday tashkil etilishi, ushbu sohalarning bolalar rivojlanishida va jamiyatga moslashishidagi ahamiyatini o'rganganlar. Umuman olganda, maktabgacha ta'limning har bir sohasi uchun keng bilim beruvchi manbaa hisoblanadi. G.Nazirovaning⁷ o'quv qo'llanmalari esa bola rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar haqida ma'lumot beradi. D.A.Saliyeva, Sh.A.Dusmuhammedova, P.S.Ergashevlar⁸ esa kichik yoshdagi bolalar rivojlanishini tashxislash metodi orqali aniqlashning ahamiyatini o'rgangan, O.U.Hasanboyev, M.X.Tojiyeva, Sh.K.Toshpo'latova, M.M.Pirmuhammedova, M.Sh.Nurmatova, N.M.Qayumova, N.N.Jamilova, X.Sariboyev, L.A.Kulay⁹ kabi olimlar bola rivojlanishi va jamiyatga moslashishida MTT larning o'rni muhimligini o'quv qo'llanmalarida yoritib berganlar. Shaxsning shakllanishi kishilik jamiyati tomonidan yaratilgan ijtimoiy tarixiy tajribani o'zlashtirish, ta'lim tarbiya berish orqali amalga oshiriladi. Bu har xil faoliyatlarda yuzaga keladi. Bolalar egallashi lozim bo'lgan mazmunni tanlash, uning egallab olishiga rahbarlik qilish kattalar tomonidan ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Shu manbalar asosida shuni ta'kidlash mumkinki bolalarni jamiyatga moslashuv jarayoni murakkab va ko'p qirrali bo'lib, u nafaqat o'quv jarayonini, balki bolaning shaxs sifatida rivojlanishini ham ta'minlashi kerak.

⁶ Maktabgacha pedagogika. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpulatova, N.M.Kayumova, M.N.A'zamova - Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2019. - 688 b

⁷ G.Nazirova "Maktabgacha ta'lim ta'lim tarbiyani tashkil etish" Toshkent: "Bookmany print", 2024. – 492 bet

⁸ D.A.Saliyeva, Sh.A.Dusmuhammedova, P.S.Ergashev "Kichik maktab yoshida o'quv mustaqilligini tashxis qilish va rivojlantirishning uslubiy asoslari"

⁹ O.U.Hasanboyev, M.X.Tojiyeva, Sh.K.Toshpo'latova, M.M.Pirmuhammedova, M.Sh.Nurmatova, N.M.Qayumova, N.N.Jamilova, X.Sariboyev, L.A.Kulay "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi"

Shu bois, pedagoglar turli metodlar va faoliyat shakllarini uyg'unlashtirib, individual yondashuvni qo'llashlari lozim.

METODLAR

Tadqiqot turi: Mazkur tadqiqot maktabgacha ta'lim jarayonida rivojlantiruvchi muhitning bolalarning ijtimoiy moslashuviga ta'sirini o'rganishga qaratilgan bo'lib, pedagogika faniga mansub tadqiqot hisoblanadi.

Ishtirokchilar: Tadqiqotda 4-5 yoshdagi bolalar va ularni tarbiyalayotgan pedagoglar ishtirok etgan. Bolalar 2 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan tanlangan, har bir tashkilotda 30 bola va 2 pedagog.

Tadqiqot vositalari va usullari:

1. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish – mavzuga oid pedagogik, psixologik va metodik manbalarni o'rganish;
2. Taqqoslash – turli olimlarning rivojlantiruvchi muhit va ijtimoiy moslashuv haqidagi qarashlarini solishtirish;
3. Umumlashtirish va tizimlashtirish – o'rganilgan nazariy ma'lumotlar asosida xulosalar chiqarish;
4. Mantiqiy tahlil – rivojlantiruvchi muhit va jamiyatga moslashuv o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash.

Tadqiqot jarayoni: Mazkur tadqiqot jarayoni maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning jamiyatga moslashuvini ta'minlashda rivojlantiruvchi muhitning ahamiyatini aniqlash maqsadida rejalashtirildi va amalga oshirildi. Tadqiqot pedagogik yo'nalishdagi nazariy-amaliy, eksperimental xarakterga ega bo'lib, bir necha o'zaro bog'liq bosqichlarda olib borildi.

Baholash va tahlil: Diagnostik bosqichda o'tkazilgan pedagogik kuzatuvlar, suhbatlar va diagnostik metodikalar natijalari shuni ko'rsatdiki, bolalarning jamiyatga moslashuv darajasi bir xil emas. Ayrim bolalarda tengdoshlari bilan muloqotga kirishishda qiyinchiliklar, jamoaviy faoliyatda passivlik, ijtimoiy qoidalarni tushunishda yetarli tajriba yo'qligi kuzatildi. Ushbu holat rivojlantiruvchi muhitning mavjud imkoniyatlari to'liq ishga solinmaganligini ko'rsatdi.

Boshlang'ich tahlil natijalari rivojlantiruvchi muhitni takomillashtirish va pedagogik ta'sirlarni maqsadli tashkil etish zarurligini asoslab berdi.

NATIJALAR.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, maktabgacha ta'lim muassasasida maqsadli tashkil etilgan rivojlantiruvchi muhit bolalarning jamiyatga moslashuv jarayoniga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot davomida rivojlantiruvchi muhit asosida olib borilgan pedagogik faoliyat natijasida bolalarning ijtimoiy xulq-atvori, muloqot ko'nikmalari va jamoaga moslashish darajasida muhim o'zgarishlar kuzatildi.

1. Muloqot ko'nikmalarining rivojlanishi: tadqiqot natijalariga ko'ra, rivojlantiruvchi muhit joriy etilgandan so'ng bolalarning tengdoshlari bilan muloqotga kirishish faolligi oshdi. Tajriba boshlanishidan avval ayrim bolalar o'yin jarayonida yolg'iz o'ynashni afzal ko'rgan bo'lsa, rolli o'yinlar uchun maxsus tashkil etilgan muhitda ("Do'kon", "Oila", "Bog'cha") ular o'z ixtiyori bilan guruhli o'yinlarga qo'shila boshladi. Masalan, avval muloqotdan qochgan bola "sotuvchi" rolini bajarib, boshqa bolalar bilan faol suhbat olib bordi.

2. Jamoaviy faoliyatga moslashuvning oshishi: tadqiqot davomida bolalarning jamoada ishlashga moslashuvi sezilarli darajada yaxshilandi. Rivojlantiruvchi muhitda jamoaviy topshiriqlar va hamkorlikka asoslangan faoliyat turlari muhim o'rin egalladi.

3. Ijtimoiy xulq-atvor va o'zini tutish madaniyatining shakllanishi: tadqiqot natijalari rivojlantiruvchi muhit bolalarda ijtimoiy qoidalarni tushunish va ularga amal qilish ko'nikmalarini rivojlantirganini ko'rsatdi.

4. Mustaqillik va o'ziga ishonchning ortishi: rivojlantiruvchi muhit bolaning mustaqil qaror qabul qilishi va o'ziga ishonchini oshirishga xizmat qildi.

5. Hissiy-emotsional moslashuvning yaxshilanishi: tadqiqot natijalari rivojlantiruvchi muhit bolalarning hissiy holatini barqarorlashtirishga ham xizmat qilganini ko'rsatdi.

MUNOZARA

O'tkazilgan tadqiqot natijalari rivojlantiruvchi muhitning maktabgacha yoshdagi bolalarning jamiyatga moslashuvida muhim pedagogik vosita ekanligini ko'rsatdi. Shu bilan birga, ushbu jarayonning samaradorligi bir qancha omillarga bog'liq ekanligi ham aniqlangan.

Rivojlantiruvchi muhitning tarkibiy qismlari predmetli-makoniyl muhit, ijtimoiy-psixologik muhit va pedagogik yondashuv bolalarning ijtimoiy moslashuviga turlicha ta'sir qiladi. Tadqiqot davomida kuzatilgan misollar shuni ko'rsatdiki, jismoniy jihatdan boyitilgan muhit (ijodiy burchaklar, o'yin maydonchalari, didaktik materiallar) bolalarning mustaqil faoliyatga kirishishini rag'batlantiradi, lekin ijtimoiy-psixologik muhit va pedagog qo'llab-quvvatlovi bo'lmasa, ularning jamiyat qoidalariga moslashuvi yetarli darajada rivojlanmaydi. Masalan, rolly o'yinlarda pedagogning nazorati va yordamiga ega bo'lgan bolalar muloqot va hamkorlik ko'nikmalarini tezroq egallashgan.

Rivojlantiruvchi muhitning zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilishi ham ijtimoiy moslashuvga ta'sir qilishi mumkin. Tadqiqot davomida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangan faoliyat markazlarida bolalar ijtimoiy rollarni simulyatsiya qilish va guruhdagi vazifalarni bajarishda faol ishtirok etganlari kuzatildi. Shu bilan birga, AKTdan noto'g'ri foydalanish holatlari bolalarda diqqatni jamlash va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga salbiy ta'sir qilishi mumkinligi ham ko'rsatildi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, rivojlantiruvchi muhit maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning jamiyatga moslashuvini ta'minlashda asosiy pedagogik omil hisoblanadi. Rivojlantiruvchi muhitning mazmuni va tarkibi — predmetli-makoniyl muhit, ijtimoiy-psixologik muhit va pedagogik yondashuv — bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini, muloqot qobiliyatini, jamoaviy faoliyatdagi faolligini, mustaqillik va o'ziga ishonch darajasini sezilarli darajada oshiradi.

Tadqiqot davomida kuzatilgan hayotiy misollar shuni ko'rsatdiki, bolalar rivojlantiruvchi muhit asosida tashkil etilgan rolly o'yinlar, jamoaviy topshiriqlar,

ijodiy va faoliyat markazlarida faol qatnashish orqali jamiyat qoidalarini tushunish va ularga moslashish ko'nikmalarini mustahkamlashadi. Shu bilan birga, pedagoglarning qo'llab-quvvatlashi va ota-onalar bilan hamkorlik bu jarayonni yanada samarali qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 9-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi sohasidagi ustuvor vazifalar" to'g'risidagi nutqidan
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni "Raqamli O'zbekiston — 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida".
3. "Maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish konsepsiyasi" – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son Qarori bilan tasdiqlangan.
4. "Ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish to'g'risida" – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 25-iyundagi 402-son qarori
5. Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги ЎРҚ-637-сон Қонуни. Тошкент ш., 2020 йил 23 сентябрь. *(Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.09.2020 й., 03/20/637/1313-сон)*
6. Maktabgacha pedagogika. F.R.Qodirova, Sh.Q-Toshpulatova, N.M.Kayumova, M.N A'zamova - Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2019. - 688 b
7. G.Nazirova "Maktabgacha ta'lim ta'lim tarbiyani tashkil etish" Toshkent: "Bookmany print", 2024. – 492 bet
8. D.A.Saliyeva, Sh.A.Dusmuhammedova, P.S.Ergashev "Kichik maktab yoshida o'quv mustaqilligini tashxis qilish va rivojlantirishning uslubiy asoslari"
9. O.U.Hasanboyev, M.X.Tojiyeva, Sh.K.Toshpo'latova, M.M.Pirmuhammedova, M.Sh.Nurmatova, N.M.Qayumova, N.N.Jamilova, X.Sariboyev, L.A.Kulay "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi"